



ISSN 2091-5187

# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ЖУРНАЛ

№4/2

2024



# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2024 йил, 4/2-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда  
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий  
жамоаси:**

**Бош муҳаррир:**

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

**Бош муҳаррир**

**ўринбосари:**

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

**Масъул котиб:**

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

**Муҳаррирлар:**

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров  
PhD, доцент И.М.Пардаева  
А.Х.Мингбоев

**Техник муҳаррир:**

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

**Корректор:**

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

**Саҳифаловчи:**

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба  
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида  
тарқатилади.**

**Тахририят манзили:**

140100, Самарқанд шаҳар,  
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,  
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53  
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

**Тахририят кенгаши раиси:**

**М.Э.Пўлатов** – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис  
институти ректори, и.ф.д., профессор

**Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:**

**Д.Х.Асланова** – СамИСИ илмий ишлар ва  
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

**Тахрир кенгаши аъзолари:**

**Б.А.Бегалов** – Ўзбекистон Республикаси Президенти  
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,  
профессор

**М.Қ.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.К.Ғоибназаров** – и.ф.д., профессор.

**М.М.Мухаммедов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Д.Р.Зайналов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Муртазаев** – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

**М.Р.Болтабаев** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Р.Х.Эргашев** – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

**И.С.Тўхлиев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**К.Б.Уразов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Қ.Ж.Мирзаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.И.Исроилов** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Г.М.Шодиева** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.Абдукаримов** – СамИСИ профессори, и.ф.н.

**Р.Қобилов** – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

**С.Н.Тошназаров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Р.Н.Нормахматов** – СамИСИ профессори, т.ф.д.

**А.Бектемиров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**М.Т.Алимова** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**З.Дж. Адилова** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Ш.О.Қувондиқов** – СамИСИ профессори в.б., иқтисод  
фанлари доктори

**Л.Н.Халикова** – СамИСИ профессори, DSc

**Ф.А.Сафаров** – СамИСИ доценти, DSc

**А.М.Каримова** – СамИСИ профессори в.б., DSc

<b>МЕНЕЖМЕНТ ВА МАРКЕТИНГ</b>	
<b>Rayhona Sadriddinova Amriddinova, Shaxrizoda Xolmirzaeva</b> Mehmonxonada sifatni boshqarish tizimini yo'lga qo'yish	148
<b>Мохигул Эркиновна Ахтамова</b> Управление бизнесом в Республике Узбекистан и пути её совершенствования	150
<b>Бахтиёр Васиевич Насимов</b> Идентификация основных проблем и вызовов, связанных с управлением производственными запасами	156
<b>Qobiljon Qaxramon o'g'li Shodmonov</b> Sanoat korxonalarini boshqaruvi samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi	162
<b>Muxabbat Sameyevna Sharipova</b> Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida boshqaruvning strategik vazifalari	166
<b>МОЛИЯ, ПУЛ МУОМАЛАСИ ВА КРЕДИТ</b>	
<b>Зухур Давронович Ниёзов, Шухратжон Зухурович Давронов</b> Иқтисодийда молиявий ресурсларни кўпайтириш	173
<b>Азиза Махомадризовна Каримова, Ориф Шакирович Максудов</b> Анализ предпринимательской деятельности в Республике Узбекистан	179
<b>Sanjar Jaloliddin o'g'li Abdusaidov</b> Sug'urta korxonalarida MHSni qo'llashning muammo va yechimlari	184
<b>Pyos Pkhovich Ayubov, Muhriddin Ixtiyor o'g'li Ergashev</b> Valyuta bozori tahlili va uni erkinlashtirish yo'llari	189
<b>Зафаржон Яшинович Рахманов</b> Тижорат банклари фаолиятида трансформацион жараёнлар: муаммо ва ечимлар	192
<b>БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ, ИҚТИСОДИЙ ТАҲЛИЛ ВА АУДИТ</b>	
<b>Nodirbek Xurshid o'g'li Berdiqobilov</b> Korxonalarda xarajatlarning strategik boshqaruv hisobini takomillashtirish	199
<b>Саёхат Зафаровна Зарипова</b> Ведение учета основных средств на основе международных стандартов бухгалтерского учета	203
<b>ТАЪЛИМ, КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ВА ПЕДАГОГИКА</b>	
<b>Sohiba Sirojiddinova Kamolova, Mohigul Xudoyberdi qizi Jamolova</b> Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarining imkoniyatlari	206
<b>Ihom Begmatdulobovich Mattiyev</b> Sog'lomlashtirish va dunyoqarash texnologiyasi tushunchasining mazmun-mohiyati hamda funksiyalari.	209
<b>Nigina Marupovna Usmanova, Sevinch Sobirjonovna Raxmonkulova</b> Kadrlarni saqlab qolish strategiyalarini qo'llashda kadrlar siyosatining ahamiyati	213
<b>ИБРАТЛИ БИТИКЛАР</b>	
<b>Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев</b> Ўзимизга ўзимиз ташвиш орттирмайлик	218

# ТАЪЛИМ, КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ВА ПЕДАГОГИКА

**Sohiba Sirojiddinova Kamolova** – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Buxgalteriya hisobi” kafedrasida o‘qituvchisi

**Mohigul Xudoyberdi qizi Jamolova** – Samarqand Davlat Arxitektura va Qurilish universiteti Qurilish muhandisligi kafedrasida o‘qituvchisi

## TA'LIM JAROYONIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING IMKONIYATLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ayni vaqtda O‘zbekiston Respublikasida ta‘lim -tarbiya jaroyonida o‘quvchilarga zamonaviy axborot texnologiyalar asosida ta‘lim berish, axborot texnologiyalar sohasidagi yangi izlanishlar bilan tanishtirib borish, o‘qitishning faol usullarini bilish va qo‘llay olish hisobga olingan. Tadqiqot davomida axborot texnologiyalarning hozirgi holati, muammolari va istiqbollari tahlil qilingan. Shuningdek, xorijiy mamlakatlarning ushbu sohadagi tajribasi o‘rganilgan hamda milliy iqtisodiyotda internet xizmatlarining rivojlanishini ta‘minlash uchun takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** Internet xizmatlari bozori, milliy iqtisodiyot, samaradorlik, takomillashtirish, raqamli transformatsiya, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, innovatsion rivojlanish, uzluksiz ta‘lim, masofaviy ta‘lim.

**Kirish.** XXI asr axborot texnologiyalari asri sifatida e'tirof etilmoqda. Bugungi kunda internet inson hayotining barcha jabhalariga jadal kirib bormoqda. Elektron tijorat, masofaviy ta‘lim, onlayn xizmatlar va raqamli iqtisodiyotning boshqa ko‘plab yo‘nalishlari rivojlanmoqda. Xususan, internet xizmatlari bozori jadal sur'atlar bilan o‘sib, iqtisodiyotning muhim qismiga aylanib bormoqda. O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda ushbu sohaga alohida e'tibor qaratilmoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, elektron hukumatni joriy etish, IT-parklar faoliyatini yo‘lga qo‘yish borasida qator farmon va qarorlar qabul qilindi. Shu bois, milliy iqtisodiyotda internet xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, internet xizmatlari nafaqat iqtisodiyot, balki jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olgan. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida an'anaviy biznes modellari o‘zgarib, raqamli transformatsiya jarayoni kechmoqda. McKinsey Global Institute ma'lumotlariga ko‘ra, 2025-yilga kelib global miqyosda internet iqtisodiyotining hajmi 22 trillion AQSH dollarini tashkil etishi kutilmoqda. Bu esa ushbu sohani tadqiq etish va rivojlantirish zaruratini keltirib chiqaradi. Shu nuqtayi nazardan, ushbu tadqiqot ishining maqsadi milliy iqtisodiyotda internet xizmatlari bozorining samaradorligini oshirish va takomillashtirish yo‘llarini aniqlashdan iborat.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Internet xizmatlari bozori va uning iqtisodiyotdagi o‘rni bo‘yicha xorijlik va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, A. Goldfarb va J. Trefler internet iqtisodiyoti rivojlanishining global tendensiyalarini o‘rganib, uning iqtisodiy o‘sishga ta‘sirini tahlil qilgan. Shuningdek, D. Tapscott, A. Agrawal va A. Goldfarb raqamli iqtisodiyotning texnologik, iqtisodiy va ijtimoiy jabhalarini tadqiq etishgan. O‘zbekistonlik olimlardan S. Gulyamov, R. Ayupov, O. Abdullayev, S. Begalov va boshqalar milliy iqtisodiyot tarmoqlarini raqamli transformatsiya qilish masalalarini o‘rgangan. Tadqiqotchi I. Aripov esa O‘zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirish va internet xizmatlarining iqtisodiyotdagi rolini tadqiq etgan. Shu bilan birga, internet xizmatlari bozorini yanada takomillashtirish, samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha tadqiqotlar o‘tkazish zarurati saqlanib qolmoqda. Chunki ushbu soha shiddat bilan rivojlanib bormoqda va har bir davlatning o‘ziga xos iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik xususiyatlari mavjud. Mazkur tadqiqot ana shu jihatlarni inobatga olgan holda O‘zbekiston milliy iqtisodiyotida ta‘lim sohasida internet xizmatlari bozorini tahlil qiladi va istiqbolli yo‘nalishlarni belgilab beradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu tadqiqotda milliy iqtisodiyotda internet xizmatlari bozorining samaradorligini oshirish va takomillashtirish yo‘llarini aniqlash maqsadida bir qator

metodlardan foydalanildi. Birinchi navbatda, mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, statistik ma'lumotlar va hisobotlar tahlil qilindi. Xorijiy va mahalliy manbalar o'rganildi, internet xizmatlari bozorining rivojlanish tendensiyalari, muammolari va istiqbollari belgilab olindi. Tadqiqotning nazariy asosini raqamli iqtisodiyot, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, innovatsion rivojlanish uzluksiz va masofaviy ta'lim kabi tushunchalar tashkil etdi. Empirik ma'lumotlarni to'plash uchun so'rovnomalar o'tkazildi. Respondentlar sifatida internet xizmatlaridan faol foydalanuvchilar, sohada faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik sub'yektlari vakillari hamda ekspertlar jalb qilindi. So'rovnomalar natijasida internet xizmatlari bozorining aholi va biznes sub'yektlari hayotidagi o'rni, foydalanuvchilarning ehtiyoj va talablari, muammoli jihatlar aniqlandi. Shuningdek, internet xizmatlari bozori rivojlangan davlatlar - AQSh, Xitoy, Janubiy Koreya tajribasi o'rganildi va qiyosiy tahlil o'tkazildi. Ushbu mamlakatlarning mazkur sohani rivojlantirishdagi yutuq va kamchiliklari tahlil qilindi, milliy iqtisodiyotimiz uchun va ta'lim sohasi uchun maqbul jihatlar belgilab olindi.

**Tadqiqotda statistik tahlil usullaridan ham keng foydalanildi.** O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi hamda xalqaro tashkilotlarning rasmiy ma'lumotlari tahlil qilindi. Internet xizmatlari bozorining so'nggi yillardagi rivojlanish sur'atlari, tarmoqlar kesimidagi ko'rsatkichlari, investitsiyalar hajmi dinamikasi o'rganildi. Tadqiqot davomida SWOT-tahlil amalga oshirildi. Ya'ni, milliy iqtisodiyotda internet xizmatlari bozorini rivojlantirishning kuchli va kuchsiz tomonlari, imkoniyat va tahdidlari aniqlandi. Ushbu tahlil natijalariga ko'ra, sohani yanada takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqildi. Shu bilan birga, tadqiqot davomida ekspertlar bilan chuqurlashtirilgan intervyular o'tkazildi. Iqtisodiyot, ta'lim, axborot texnologiyalari sohalarining yetuk mutaxassislari, olimlar, amaliyotchilarning fikr-mulohazalari o'rganildi va tahlilga jalb etildi. Yuqoridagi metodlar asosida to'plangan ma'lumotlar kompleks tahlil qilindi, milliy iqtisodiyotda internet xizmatlari bozorining rivojlanish tendensiyalari, muammolari aniqlandi hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan xulosalar shakllantirildi. Takliflarni ishlab chiqishda O'zbekistonning iqtisodiy va texnologik imkoniyatlari, ehtiyojlari inobatga olindi.

**Tahlil va natijalar.** O'zbekiston milliy iqtisodiyotida internet xizmatlari bozorining rivojlanish darajasi va samaradorligini baholash, ta'lim sohasida axborot texnologiyalarini qo'llash uchun bir qator ko'rsatkichlar tahlil qilindi. Eng avvalo, internet foydalanuvchilari soni dinamikasi o'rganildi.

Dars jaroyonini ijobiy bosqichga ko'tarishda axborot texnologiyalari muhim rol o'ynaydi, axborot texnologiyalarining asosiy maqsadi esa o'qitish tizimida o'quvchilarni o'quv materiallarini mustaqil ravishda o'rganish va rivojlanish, darsning faol ishtirokchisiga aylantirishdir. Ta'lim berish jaroyonida har bir o'quvchi o'zining shaxsiy fikr yoki g'iyalariga asoslanishi hamda ularni o'rgatish ham muhim ekanligini o'quvchilar ongiga singdirib borishimiz lozim. Chunki ta'lim yosh avlod tarbiyasi bilan uzviy bog'liqdir. O'quv-tarbiya jaroyonining axborot-metodik ta'minotini amalga oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining bajaradigan asosiy vazifasi ikki tomonlama muloqatni ta'minlashdir. Teskari aloqasiz, o'qituvchi va o'quvchi orasidagi doimiy muloqatsiz o'qitish mumkin emas. O'qitish mustaqil o'qishdan farqli o'laroq ta'rifga muvofiq muloqotli hisoblanadi. Ta'lim shaklida muloqat imkoniyati o'quv jaroyonini tashkil etish shakli, o'qituvchi va o'quvchining bir joyda va bir vaqtda bo'lishini taqqozo qiladi. O'qitishning muammoli metodi axborot texnologiyalarining o'quv jaroyonini qandaydir muammoni qo'yish va uni hal qilish yechimlarini izlash sifatida tashkil qilishga oid imkoniyatlaridan foydalanadi. Asosiy maqsad ta'lim oluvchilarning bilish faolligini oshirishga maksimal darajada ko'maklashishdan iborat. Ta'lim jaroyonida olinayotgan bilimlar asosida turli toifadagi masalalarning yechilishi shuningdek qo'yilgan muammoni hal qilish uchun zarur bo'ladigan qator qo'shimcha bilimlarni olish va tahlil qilish ko'zda tutiladi. Bunda axborotni to'plash tartiblashtirish, tahlil va uzatishga oid ko'nikmalarni egallashga alohida e'tibor qaratiladi.

Axborot texnologiyalar sohasidagi yangi izlanishlar bilan tanishish, o'qitishning faol usullarini bilish va qo'llay olish har bir o'qituvchining oldiga qo'yayotgan zamon talablari

hisoblanadi.

O‘quv jaroyonida axborot texnologiyalaridan foydalanish foydalanuvchilarning tafakkur ko‘nikmalarini va murakkab vazifalarni hal qilish malakalarini rivojlantirishning yangi yo‘llarini ochib beradi, ta‘limni faollashtirish uchun principal yangi imkoniyatlarni taqdim qiladi. Axborot texnologiyalari auditoriya va mustaqil mashg‘ulotlarni yanada qiziqarli, dinamik va ishonchli, o‘rganiladigan axborotning katta oqimini oson o‘zlashtiriladigan qilish imkonini beradi.

Axborot texnologiyalari vositalarining amaliy tomoni ulardan o‘quv jaroyonida foydalanish va kelgusida ta‘lim tizimida o‘quv jaroyoni uchun ma‘lumotlar omborini yaratish va virtual stendlar yaratishdek muhim vazifani amalga oshirishga zaminhozirlaydi va bizga katta imkoniyatlar yaratib beradi. Hozirgi kunda ta‘lim jaroyonini texnik vositalarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Oliy ta‘limda axborot texnologiyalarini qo‘llash orqali dars o‘tish o‘quvchilarga berilayotgan axborotni tez va oson yetib borishini, ularni tushunarli va xotirada yaxshi saqlanishining asosi bo‘ladi. Bundan tashqari oliy ta‘lim tizimida telekonferensiyalarni tashkil qilinganligi ta‘lim jaroyonining yutuqlaridan biridir. Talabalar internet tizimlari orqali jahonning boshqa mamlakatlarida ro‘y berayotgan voqea-hodisalar, tadbirlar, ta‘lim jaroyonining yangiliklari va yutuqlari haqida ma‘lumotlarga ega bo‘ladilar. Demak, axborot texnologiyalari- talabalarning bilimlarini rivojlantiradigan, ularning texnika va ijtimoiy jaroyonlarni boshqarish bo‘yicha imkoniyatlarini kengaytiradigan, ma‘lumotlarni tashkil etish, ishlab chiqarish, tiklash, uzatish usullari vateknika vositalari bo‘lib xizmat qilar ekan. Dunyoning ko‘plab mamlakatlarida masofaviy ta‘lim imkoniyatlari keng foydalaniladi.

**Xulosa va takliflar.** Bugungi kunda axborot texnologiyalariga asoslangan harqanday jamiyat o‘z fuqorolarining hayotidagi o‘zgarishlarga qiyinchiliklarsiz moslashishi, faol faoliyat ko‘rsatib mustaqil qarorlar qabul qila olishdan manfaatdordir. Kadrlar tayyorlash sohasida yangi ming yillikda jamiyatda yashaydigan va mehnat qiladigan shaxs albattada ma‘lum kasbiy sifatlarga ega bo‘lishi o‘zim degan tasavvur shakllangan.

Oliy ta‘lim muassasalarida IT-ta‘limni takomillashtirish, xalqaro tajribani o‘rganish va o‘quv dasturlariga innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish. IT-mutaxassislarining malakasini oshirish, xorijiy texnoparklar va kompaniyalarda stajirovkalarni tashkil etish. Kiberxavfsizlikni ta‘minlash va ma‘lumotlarni himoya qilish tizimini mustahkamlash, bu borada xalqaro standartlarga rioya qilish. Internet xizmatlari bozoriga oid normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, intellektual mulk huquqlarini himoya qiluvchi mexanizmlarni kuchaytirish. Ushbu takliflarni amaliyotga tatbiq etish orqali O‘zbekistonda internet xizmatlari bozorining sifat va samaradorligini oshirish, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish mumkin. Bu esa pirovardida mamlakatimiz iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida"gi PF-60-son Farmoni.
2. Manyika, J., Lund, S., Bughin, J., Woetzel, J., Stamenov, K., & Dhingra, D. (2016). Digital globalization: The new era of global flows. McKinsey Global Institute, 1-156.
3. Tapscott, D. (2015). The digital economy: Promise and peril in the age of networked intelligence. McGraw-Hill Education.
4. Agrawal, A., Gans, J., & Goldfarb, A. (2018). Prediction machines: the simple economics of artificial intelligence. Harvard Business Press.
5. Gulyamov, S. S., Ayupov, R. X., Abdullayev, O. M., & Begalov, B. A. (2019). Raqamli iqtisodiyotda blokcheyen texnologiyalari. TMI.
6. Ayupov, R. X., & Boltabayev, M. R. (2020). Raqamli iqtisodiyot asoslari. Darslik, Toshkent moliya instituti.
7. Xalqaro telekommunikatsiya ittifoqi (ITU) rasmiy sayti, itu.int. 11. We Are Social & Hootsuite (2022). Digital 2022 Global Overview Report. wearesocial.com
8. Hakimova M.F., Xo‘jayev N Pedagogik texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma “Fantexnologiyalari”, 2008.
9. Omonov X.T va b “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahurat”. Toshkent: 2009.

<p style="text-align: center;"><b>С.Камалова, М.Джамолова</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Возможности информационных технологий в образовательном процессе</b></p> <p><b>Аннотация.</b> В данной статье изучается обучение студентов на основе современных информационных технологий, ознакомление их с новыми исследованиями в области информационных технологий, знание и использование активных методов обучения в процессе образования в Республике Узбекистан. В ходе исследования было проанализировано современное состояние, проблемы и перспективы информационных технологий. Также изучен опыт зарубежных стран в этой сфере и разработаны предложения по обеспечению развития интернет-услуг в национальной экономике.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> рынок интернет-услуг, национальная экономика, эффективность, совершенствование, цифровая трансформация, информационно-коммуникационные технологии, инновационное развитие, непрерывное образование, дистанционное образование.</p>	<p style="text-align: center;"><b>S.Kamalova, M.Jamolova</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Opportunities of information technologies in the educational process</b></p> <p><b>Abstract.</b> This article studies teaching students on the basis of modern information technologies, introducing them to new researches in the field of information technologies, knowing and using active methods of teaching in the process of education in the Republic of Uzbekistan. During the study, the current state, problems and prospects of information technologies were analyzed. Also, the experience of foreign countries in this field was studied, and proposals were developed to ensure the development of Internet services in the national economy.</p> <p><b>Keywords:</b> Internet services market, national economy, efficiency, improvement, digital transformation, information and communication technologies, innovative development, continuous education, distance education.</p>
--	--

**Iltom Begmatdulobovich Mattiyev** – SamISI, “Tillarni o‘qitish” kafedrası professori, pedagogika fanlari doktori

### **SOG‘LOMLASHTIRISH VA DUNYOQARASH TEXNOLOGIYASI TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHİYATI HAMDA FUNKSIYALARI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish va ommaviy sportni rivojlantirish orqali jamiyatda ijobiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, yosh avlodni ma‘naviy jihatdan sog‘lom va barkamol shaxs sifatida tarbiyalash, ularni Vatanga sadoqat ruhida shakllantirish, islohotlar doirasida yosh avlodni jismoniy va ma‘naviy jihatdan sog‘lom, har tomonlama barkamol insonlar sifatida tarbiyalash ustuvor vazifalardan biri sifatida, barkamol shaxsni voyaga etkazish va hokazolar haqida so‘z yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** zamon talablari, rivojlantirish, sog‘lom avlodlar, sog‘lom turmush tarzi, muhofaza qilish, rivojlantirish, ta‘lim texnologiyalari, pedagogik ta‘lim, yondashuvlar, imkoniyatlar, dunyoqarash, jamiyat.

**Kirish.** 2020-yil 20-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev Oliy Majlisga qilgan murojaatida jamiyatda sog‘lom turmush tarzini mustahkamlash, jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish dolzarb yo‘nalishlardan biri ekanini ta‘kidladi. Shu bilan birga, sportni rivojlantirish va xalqaro musobaqalarda yuqori yutuqlarga erishgan sportchilarni qo‘llab-quvvatlashga alohida ahamiyat qaratilishi qayd etildi [1].

Keyingi yillarda Respublikamizda ommaviy sportni rivojlantirish masalasi muhim ustuvorlikka aylangan. Bu yo‘nalishda sport infratuzilmasini rivojlantirish, zamonaviy sport inshootlarini barpo etish va yoshlarni sportga jalb qilish orqali sog‘lom hayot tarzini keng targ‘ib qilishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Yosh avlodni ma‘naviy jihatdan sog‘lom va barkamol shaxs sifatida tarbiyalash, ularni Vatanga sadoqat ruhida shakllantirish esa o‘qituvchilar va mutaxassislar zimmasidagi asosiy mas‘uliyatli vazifalardan biridir.

Bundan tashqari, sportchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, ularga malakali murabbiylar tomonidan sifatli mashg‘ulotlar tashkil etish, xalqaro standartlarga mos musobaqalarni o‘tkazish orqali nafaqat sport yutuqlarini oshirish, balki mamlakatimizning xalqaro nufuzini yuksaltirishga erishish ko‘zda tutilgan.

Shunday qilib, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish va ommaviy sportni rivojlantirish orqali jamiyatda ijobiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, har bir fuqaroning jismoniy va ruhiy salomatligini mustahkamlash dolzarb vazifa sifatida belgilangan. Ushbu jarayonni muvaffaqiyatli

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят  
бўлимида нашрга тайёрланди.

20.11.2024 йилда теришга берилди. 11.12.2024 йилда босишга рухсат этилди.  
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84<sub>1/8</sub>. “Times” гарнитураси. Офсет  
босма усули. Шартли босма табағи 14,6. Ҳисоб-нашриёт  
табағи 12,5. Адади 100 нусха. Буюртма № 0134В/24

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг  
матбаа бўлимида чоп этилди.  
Лицензия № 025316.  
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2024.